

BANK XIZMATLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA BANK INNOVATSIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI

Xodjimamedov Akmal Ashurovich

Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti v.b., PhD

khodjimamedov@rambler.ru

<https://orcid.org/0000-0002-0876-6671>

Annotatsiya. Tadqiqotlarga ko'ra, innovatsiyalar butun bank tizimini rivojlantirish, shuningdek, yagona raqamli platformadan foydalanish orqali xarajatlarni minimallashtirish va yangi bank mahsulotlarini mijozlarga taqdim etishda mustahkam hamkorlik aloqalarini shakllantirish uchun muhimdir. Maqolada bank tizimda kechayotgan kuchli raqobat sharoitida bank innovatsiyalarini joriy etishning yo'nalishlari ko'rib chiqilgan bo'lib, bank innovatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Bank, innovatsiya, raqobat, raqamli texnologiyalar, transformatsiya, sun'iy intellekt.

I. KIRISH

Raqamlashtirish sharoitida bank faoliyatini transformatsiya qilish tendentsiyalari doirasida ikkita ustuvor yo'nalishni qayd etish mumkin: ulardan biri raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan va taqdim etilayotgan yangi bank mahsulotlarini ishlab chiqish bo'lsa, ikkinchi yo'nalish bank sektoridan tashqarida faoliyat yurituvchi kompaniyalar bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini kuchaytirish va birgalikda noan'anaviy bank mahsulotlarini mijozlarga taqdim etishni nazarda tutadi.

Global iqtisodiy o'zgarishlar oqibatida mamlakatimiz bank sektori barqarorligini ta'minlash, tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan innovatsion bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish, raqamli texnologiyalarni bank operatsiyalariga integratsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

"Tijorat banklari va moliyaviy xizmatlarning ma'lum bir sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalar tomonidan innovatsiyalarni qo'llashdagi o'zgarishlar keng doiradagi mijozlarga bank va nobank xizmatlarini taklif etadi"[1]. Buning natijasida bank tizimiga oid ko'rsatkichlarning o'sish tendentsiyalari kuzatilmoqda. Jumladan, 2019-2023 yillarda jami bank aktivlari hajmi o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jami bank aktivlari hajmi 652,1 trln. so'mni tashkil etgan holda oldingi yilga nisbatan 95,4 trln. so'mga yoki 17,1 foizga oshgan. Mazkur holat so'nggi yillarda bank tizimi moliyaviy barqarorligini oshirish, tijorat banklari tomonidan yangi bank xizmat va mahsulotlarini joriy etishni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning faollashgani bilan izohlanadi.

"Ayrim iqtisodchi olimlar bank tizimida raqamli biznes muhitini yaratish uchun mijozlar va kontragentlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash zarurligi"ni qayd etishgan [2]. Kross-kanallarni shakllanishga asoslangan raqamli bank ekotizimi muammolarni hal etish bo'yicha yagona platformani yaratishni nazarda tutadi.

Iqtisodiyotni raqamli transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari faoliyatida innovatsion mahsulot va xizmatlarni kengaytirish maqsadida mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni mustahkamlash, mijozlarni mustaqil izlash va bazasini kengaytirgan

holda ularning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan ixtisoslashtirilgan xizmatlarni keng joriy etish, moliyaviy texnologiyalar sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalar bilan hamkorlik orqali zamonaviy innovatsion mahsulotlarni mijozlarga taqdim etish kabi yo'nalishlardan foydalanish lozim.

Yuqoridagi tendentsiyalar bank tizimida innovatsion raqamli texnologiyalarni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llash bankni rivojlantirish strategiyasi asosida innovatsion chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo etadi.

II. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bank tizimining raqamli transformatsiyasi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida bank innovatsiyalarini joriy etish masalalari xorijiy iqtisodchi olimlardan O.I.Lavrushin[3], R.C.Merton, D.T. Llewellyn va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Banklar faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish, rejalashtirish va bank xizmatlarini ko'rsatishda raqobatbardoshlikni oshirish masalalari yuzasidan L.V.Kox[4], A.S.Bershakova, M.S.Pleskushkina, X.Vives, R.Kubus kabi iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan N.Jumayev[5], A.Mirsoatov, E.Xoshimov[6], Z.Mamadiyarov, X.Xudayarovalarning ilmiy ishlarida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida bank xizmatlarini innovatsion rivojlantirish, banklarni raqamli transformatsiya qilish jarayonida bank xizmatlarini masofadan ko'rsatish va valyuta siyosatini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Mazkur tadqiqotda analitik taqqoslash, mantiqiy va taqqoslama tahlil, tarkibiy tahlil, grafik tahlil, guruhlash usullari hamda mavzuga oid xorijiy olimlarning tadqiqot ishlaridan keng foydalanildi.

III. NATIJALAR VA MUHOKAMA

“Innovatsion raqamli texnologiyalar asosida talab yuqori bo'lgan xizmat turlarini kengaytirish orqali daromadlarning o'sishiga erishish mumkin. Natijada to'plangan resurslardan samarali foydalangan holda bankni raqamli transformatsiyalash yo'nalishlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni jalb qilish imkoniyati yuzaga keladi”[7]. Bunday sharoitda banklar va boshqa tashkilotlar iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida moliyaviy innovatsion mahsulotlarni mijozlarga taqdim etish orqali foyda hajmini oshirishlari mumkin.

Bank tizimini raqamli transformatsiyalash jarayonida innovatsion mahsulotlarni mijozlar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yaratish va ularga taqdim etish bo'yicha chora-tadbirlar bank ekotizimini raqamli ekotizimga integratsiyasini kuchaytiradi.

“Tijorat banklarida raqamli ekotizimni yaratish va takomillashtirish mijozlar, kontragentlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, mijozlarga yangi innovatsion mahsulotlarni taqdim etish lozim”[8]. Bunda tijorat banklarining joriy kross-kanalli moliyaviy texnologiyalari asosida yaratilgan yagona raqamli dasturga ekotizimning barcha foydalanuvchilari o'tishlari orqali muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga erishish mumkin.


Tijorat banklari faoliyatida qo'llaniladigan innovatsion xizmatlarni mustaqil kross kanalli axborot texnologiyalari orqali robototexnika va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda yaratish mumkin. Natijada mavjud bank xizmatlarining sifati va qulaylik darajasini oshirish, xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklarni minimallashtirishga erishish mumkin.

1-rasmda bank tizimida innovatsion mahsulotlarni mijozlarga taqdim etishda tijorat banklari faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar keltirilgan.

Bank faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilishi natijasida mijozlarga maslahat berish, moliyaviy risklarni samarali boshqarish, investitsiya va kredit mahsulotlarini tanlash jarayonida qarorlar qabul imkonini beradi. Kross-kanalli bank infratuzilmasining yordamchi (assisted), kengaytirilgan (augmented) va mustaqil (autonomous) kabi turlari xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladi.

Yordamchi kross-kanalli bank infratuzilmasi banklarning moliyaviy texnologiya kompaniyalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish va mustahkamlash orqali bank tizimida qo'llanilayotgan dasturlarni takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

Kengaytirilgan kross-kanalli bank infratuzilmasi bank faoliyatida yangi dasturlarni yaratish va foydalanish imkonini beruvchi innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jalb etish orqali shakllantiriladi.




1-rasm. Innovatsion mahsulotlarni mijozlarga taqdim etishda tijorat banklari faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar

Mustaqil kross-kanalli bank infratuzilmasi istiqbolda avtomatlashtirilgan tarzda ishlay oladigan tizimlarni shakllatirish imkonini beruvchi texnologiyalar asosida faoliyat yuritadi.


Tijorat banklari faoliyatida qo'llaniladigan innovatsion xizmatlarni mustaqil kross kanalli axborot texnologiyalari orqali robototexnika va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda yaratish mumkin. Natijada mavjud bank xizmatlarining sifati va qulaylik darajasini oshirish, xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklarni minimallashtirishga erishish mumkin.

Bank faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilishi natijasida mijozlarga maslahat berish, moliyaviy risklarni samarali boshqarish, investitsiya va kredit mahsulotlarini tanlash jarayonida qarorlar qabul imkonini beradi. Kross-kanalli bank infratuzilmasining yordamchi (assisted), kengaytirilgan (augmented) va mustaqil (autonomous) kabi turlari xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladi[9].



2-rasm. Kross-kanalli bank infratuzilmasining asosiy ko'rinishlari


Yordamchi kross-kanalli bank infratuzilmasi banklarning moliyaviy texnologiya kompaniyalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish va mustahkamlash orqali bank tizimida qo'llanilayotgan dasturlarni takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Kengaytirilgan kross-kanalli bank infratuzilmasi bank faoliyatida yangi dasturlarni yaratish va foydalanish imkonini beruvchi innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jalb etish orqali shakllantiriladi. Mustaqil kross-kanalli bank infratuzilmasi istiqbolda avtomatlashtirilgan tarzda ishlay oladigan tizimlarni shakllatirish imkonini beruvchi texnologiyalar asosida faoliyat yuritadi.



3-rasm. Zamonaviy bank mahsulotlarini yaratishning eng keng tarqalgan usullari

Zamonaviy bank mahsulotlarini yaratishning eng keng tarqalgan usullari 3-rasmda keltirilgan.

Bank innovatsion mahsulotlarini mijozlarga taqdim etishda eng qulay yo'nalishi mobil ilovalardan foydalanish hisoblanadi. Hozirgi kunda mobil ilovalar tobora ommalashib bormoqda va banklar uchun mijozlar sonini ko'payishiga xizmat qilmoqda. Bunda tijorat banklari mijozlarga hisob raqam ochish, pul mablag'larini o'tkazish, onlayn to'lovlarni amalga oshirish, valyutalarni konvertatsiya qilish kabi moliyaviy xizmatlarni masofadan turib ko'rsatadi. Bank mobil ilovasi mijozlar bazasini kengaytirish va yangi innovatsion mahsulotlarni taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Bank mobil ilovasi nafaqat xizmatlarni ko'rsatish tezligi, sifati, bankning daromad hajmining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



4-rasm. Innovatsion bank xizmatlari samaradorligini belgilovchi omillar

Qayd etish lozimki, tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan masofaviy xizmatlar tarkibi yuqoridagi keltirilganlar bilan cheklanib qolmaydi. Mijozlarning talablariga muvofiq hamda yangi raqamli texnologiyalarning joriy etilishi orqali yangi mahsulot va xizmat turlari taqdim etib boriladi.

Internet-banking, mobil banking, mijozlarni masofadan identifikatsiyalash kabi ko'plab foydali funktsiyalarni o'ziga qamrab olgan yagona bank axborot platformasini yaratish va joriy etish innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish jarayonini modellashtirish hamda raqamli bank ekotizimini yaratish jarayonida muhim hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy bank mahsulotlari va kross-kanalli bank infratuzilmasida innovatsion xizmatlarni joriy etish orqali yuqori darajadagi biznes ekotizimlariga integratsiyalashish imkoniyatlarini oshiradi[10].

Fikrimizcha, tijorat banklarining innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish strategiyasi doirasidagi muhim vazifalarning bajarilishi orqali yuqori samaraga erishishga imkon yaratiladi[11].

Ushbu yo'nalishlar raqamli bank ekotizimini yaratishga o'zining ijobiy hissasini qo'shadi.



5-rasm. Bank innovatsiyalarini rivojlantirishdagi muhim vazifalar

Bank innovatsiyalarini rivojlantirish jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar va muhim yo'nalishlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: bank infratuzilmasida xizmatlar ko'rsatishning yangi shakllari va usullarini joriy etish; masofaviy xizmat turlarini kengaytirish; innovatsion mahsulotlarning faoliyat davrini uzaytirishda nobank tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish; shahsiy hisobvaraqlarni istalgan paytda masofadan boshqarish imkoniyati; xizmatlardan 24/7 rejimida foydalanish mumkinligi; moliyaviy xizmatlarni barcha uchun qulay bo'lgan interfeys orqali taqdim etilishi; yuqori darajadagi xavfsizlik tizimining yaratilganligi; to'lovlarni uzluksiz va tezkorlik bilan o'tkazish imkoniyatining mavjudligi va boshqalar[12].

Bank innovatsion mahsulotlarini yaratishda asosiy e'tibor mijozlarning talablariga qaratilishi va bu jarayon bank strategiyasini takomillashtirishda inobatga olinishi lozim. Bank tizimini transformatsiyalash jarayonida innovatsion mahsulotlarni yaratish bo'yicha loyihalarga uzoq muddatli investitsiyalarni jalb etish maqsadga muvofiq[13].

Chunki, innovatsion mahsulotlarni yaratish uzoq vaqt va xarajatlarni talab qiladi. Innovatsion mahsulotlarni yaratish jarayonida kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak. Bu turdagi mahsulotlarning ijobiy jihat bank ekotizimi doirasida kontragentlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlanishi hamda hisob-kitob jarayonlarini soddalashtirilishi hisoblanadi.

Raqamlashtirish sharoitida moliyaviy jihatdan barqaror bo'lgan banklar qo'shma moliyalashtirish yoki imtiyozli rag'batlantirishdan foydalanmagan holda moliyaviy xizmat va mahsulotlarni rivojlantirishga qaratilgan innovatsiyalarni mustaqil ravishda amalga oshirmoqda. Avvalo, bu holatda aktivlar hajmi bo'yicha bank tizimidagi etakchi bo'lgan tijorat banklari faoliyatini alohida qayd etish mumkin.

IV. XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion texnologiyalarni bank tizimiga joriy etish orqali kross-kanalli bank infratuzilmasi va masofaviy bank xizmatlarining rivojlanadi, ammo bank tizimi uchun iurli hildagi risklarni paydo bo'lishiga olib keladi. Ushbu tendentsiyalarni inobatga olgan holda, tijorat banklari imkoniyatlaridan o'z vaqtida va samarali foydalanish uchun biznes strategiyalarini takomillashtirishlari lozim. Natijada, mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilash, bank ekotizmini takomillashtirish, bank mahsulot va xizmatlari bozorida raqobatbardoshlik darajasini oshirish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Shuningdek, bank innovatsiyalarini joriy etish ko'lamini kengaytirish orqali mijozlarning chakana bank mahsulot yoki xizmatlariga bo'lgan talab va ehtiyojlarini turli aloqa kanallari asosida doimiy o'rganish imkoniyati yaratiladi. Shu asosda mijozlarning ehtiyojlari portfeli shakllantirilgan holda unga mos bo'lgan innovatsion bank infratuzilmasini joriy etish orqali mijozlar bazasini kengaytirishga erishiladi.

Mijozga yo'naltirilgan innovatsion bank xizmatlarini joriy etish sharoitida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bank risklarini baholash va uni oldini olishga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqish bank xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan raqamli texnologiyalar asosida amalga oshiriladigan bank operatsiyalari va axborot xavfsizligi bilan bog'liq risklarni doimiy monitoring qilib borish pirovardida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligida muhim ahamiyat kasb etadi.

V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Оголихина, С.Д. Оценка необходимости применения инноваций в банковской системе России [Текст] / С.Д. Оголихина // Скиф. – 2017. – No14. – С. 59-66.
2. Honka E. (2014). Quantifying search and switching costs in the us auto insurance industry RAND Journal of Economics. 45 (4); White A. (2013). Search engines: Leftside quality versus right side International Journal of Industrial Organization. 31 (6);
3. Лаврушин О.И. Новые модели банковской деятельности в современной экономике: монография / коллектив авторов; под ред. О.И. Лаврушина. – М.: КноРус, 2019. – 168 с.
4. Кох Л.В. Принципы и механизмы повышения эффективности банковской деятельности на основе использования инноваций: автореферат дисс... д-ра экон. наук / Л.В. Кох. – Иваново, 2010. – С.21.
5. Jumayev N. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish mamlakatga nima beradi?. «Bozor, pul va kredit» jurnali, 10-son, 2018 y.
6. Xoshimov E.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston Respublikasi valyuta siyosatini takomillashtirishning metodologik jihatlari. Dis. ... i.f. bo'yicha fan doktori (DSc). – T.
7. Беилин И.Л. Инновационные подходы в цифровом моделировании региональных экономических процессов//Вопросы инновационной экономики. 2019. Т.9. №2. С. 361-368.

8. Waldfogel J. (2016). Cinematic explosion: New products, unpredictability and realized quality in the digital em. *Journal of Industrial Economics*. 64 (4);
9. Waldfogel J., Reimers I. (2015). Storming the gatekeepers: Digital disintermediation in the market for books *Information Economics and Policy*. 31.; De Corniere A. (2016). Search advertising *American Economic Journal: Microeconomics*. 8 (3).
10. Рубинштейн Т. Б. Развитие банковской системы и инновационные банковские продукты (пластиковые карты) / Т. Б. Рубинштейн, О. Б. Мирошкина. – М.: Гелиос АРБ, 2002.
11. Xodjimamedov Акмал. 2022. “IMPROVING BANKING INNOVATIONS WITH DIGITALIZATION OF THE BANKING SYSTEM”. *Economics and Innovative Technologies* 10 (3):1-8. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss3/a1.
12. Ashurovich K. A. Ways to improve banking innovations // *European Journal of Life Safety and Stability*. – 2022. – Т. 16. – С. 177-178.
13. Axrorov Z.O. Banklar faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ta’siri. // *Moliya*. 2023-yil 2-son. – 80-86 б.